

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ
“ХАЛҚАРО ТУРИЗМ” ФАКУЛЬТЕТИ
“ТАРИХ” КАФЕДРАСИ

МАВЗУ: ТОШКЕНТ ШАХРИ 2200 ЁШДА
Р Е Ф Е Р А Т

Муаллиф: ассистент З.Ҳайдаров

ТОШКЕНТ-2013

REJA:

Kirish

1. Toshkent shahrining 2200 yilligi

2. Toshkent tarix silsilasida

3. Ozod yurtning obod poytaxti

4. Taraqqiyotga yuz tutgan shahar

Xulosa

KIRISH

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni chuqur o'rganish, me'moriy yodgorliklar hamda ziyoratgohlarni asrab-avaylash, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz va Sharqning ma'rifat beshigi sifatida dovrug' qozongan qadimiy shaharlarimizning yubileylarini nishonlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davrda Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Marg'ilon kabi shaharlarimizning qutlug' to'ylari xalqaro miqyosda nishonlangani buning yaqqol dalilidir.

Davlatimiz rahbarining 2008 yil 2 aprelda qabul qilingan "Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori bu borada amalga oshirayotgan ezgu ishlarimiz izchil va bardavom ekanini yana bir bor tasdiqladi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 34-sessiyasi qaroriga ko'ra, mazkur xalqaro tashkilot poytaxtimizning yubileyi bilan bog'liq tadbirlarda faol ishtirok etadi.

Demak, mamlakatimiz poytaxtida keyingi yillarda tarixiy obidalarni tiklash, shaharni obod etish, xalq farovonligini oshirishda chinakam tarixiy ahamiyat kasb etayotgan bunyodkorona ishlar ko'lami yanada yangi, yuqori bosqichga ko'tariladi. Zotan, Buyuk ipak yo'lida joylashgan hamda necha asrlar bo'yi shonli tariximiz, milliy qadriyatlarimizning shakllanishi va rivojlanishida alohida o'rin tutgan qadimiy va navqiron shahrimiz yubileyini poytaxtimizning yuksak nufuzi va mavqeiga

munosib ravishda nishonlashdek sharaflı va mas'uliyatlı vazifa oldimizda turibdi.

Toshkent tarix silsilasida

Bundan qariyb 17 yil avval O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishganligi Toshkentda dunyoga e'lon qilindi. Konstitutsiyamiz shu yerda tasdiqlandi. Qisqa aytganda, g'urur-iftixorimiz bo'lmish muazzam poytaxtimizning milliy davlatchiligimiz tarixida, davlat va jamiyat boshqaruvida, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda tutgan o'rnı hamda ahamiyati beqiyosdir.

Darhaqiqat, Toshkent 2200 yillik tarixi davomida mudofaa devori bilan o'ralgan qadimiy qal'adan jahondagi yirik shaharlardan biri – O'zbekiston Respublikasining poytaxti maqomigacha bo'lgan olis taraqqiyot yo'linı bosib o'tdi.

Qadimiy qo'lyozmalarda, xususan, Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur asarlarida shahar Choch, Shosh, Binkat, Shoshkent va ilk bor Toshkent nomi bilan qalamga olingan. Toshkentning mayin havosi, maftunkor tabiati, fusunkor bog'lari mehr-muhabbat ila madh etilgani, butun shahar bo'ylab o'tadigan Bo'zsuv, Salor, Anhor, Qorasuv, Oqqo'rg'on, Bo'rijar, Oqtepa, Qoraqamish kabi jo'shqin anhor va soylari, musaffo buloqlarining

zilol va shifobaxsh suvlari haqida tarixiy manbalarda go'zal ta'rifu tavsiflar bitilgani bejiz emas. Yurtboshimiz

ta'бири bilan aytganda, bu xosiyatli zamindan nomlari butun islom olamida mashhur Imom Qaffol Shoshiy, Shayx Xovandi Tohur, Shayx Zayniddin bobo, Ibrohim ota, Qo'yliq ota singari aziz-avliyolar, ne-ne ulug' zotlar yetishib chiqqanida katta hikmat bor. Bu hududda, shuningdek, Xoja Ahror Valiy, Shayx Umar Bog'istoniy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokatiy, Hofiz Ko'hakiy kabi allomalar yashab, ijod etgan. Buyuk bobomiz Amir Temurning o'z saltanatidagi ushbu shaharga mehri o'zgacha bo'lgan. Temuriylar tomonidan bu yerda barpo etilgan va hozirgacha savlat to'kib turgan muhtasham binolar zeb-tarovati ana shu yuksak e'tibordan darakdir.

Toshkent o'zining olis va boy tarixi davomida boshidan qancha-qancha sinov va mashaqqatlarni o'tkazgan, ne-ne buyuk voqealarning guvohi bo'lgan, doimo ulkan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mavqeini saqlab turgan va shu bois turli davrlarda turlicha ulug'langan. Poytaxtimizning "Tinchlik shahri", "Do'stlik shahri", "Jasorat shahri", "Non shahri", "Bog'-rog'lar shahri", "Sharq darvozasi" sifatidagi shuhrati Mashriqu Mag'ribga yoyilgan.

2007 yili bu ta'riflar qatoriga "Toshkent – islom madaniyati poytaxti" degan yuksak nom qo'shilgani jahon hamjamiyatining Vatanimiz va uning poytaxtiga chuqur ehtiromining yana bir amaliy ifodasi bo'ldi. O'tgan davrda yurtimizda mazkur muhim voqeaga bag'ishlangan bir qator xalqaro ilmiy va madaniy tadbirlar tashkil etildi. Prezidentimiz tomonidan 2007 yil 20 fevralda qabul qilingan "Hazrati Imom (Hastimom) jamoatchilik jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarorga muvofiq, Toshkent shahridagi Hazrati imom majmuasida

juda qisqa muddatda g'oyat katta bunyodkorlik, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgani tahsinga sazovor. Hozirgi kunda bu yerdagi Hazrati imom jome' masjidi, Baroqxon madrasasi, Mo'yi muborak ziyoratgohi, Tillashayx masjidi, O'zbekiston musulmonlari idorasining binosi va boshqa noyob, betakror imoratlar ko'zni quvontirib, xalqimizning buyuk bunyodkorlik salohiyati va yaratuvchilik dahosining yana bir marta yorqin namoyoniga aylangan.

Ko'kaldosh va Abulqosim madrasalari, Shayx Zayniddin va Shayx Xovandi Tohur, Qo'yliq ota va Zangiota me'moriy obidalar, Xoja A'lambardor maqbarasi, Yunusxon xonaqohi – poytaxtimizning kishini hayratga soladigan bu kabi noyob me'morchilik yodgorliklari bisyor. Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik doirasida yana ko'plab tarixiy obidalar, yodgorlik va qadamjolar ta'mirlanadi, obodonlashtiriladi, ularni yanada kengroq targ'ib etishga qaratilgan zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Ozod yurtning obod poytaxti

Bugun poytaxtimizning Mustaqillik maydonini ziyorat qilgan kishi bundan 16-17 yil avval bu yerdagi so'lim bog' va chamanzorlar, salobatli inshootlar, ko'rkam yodgorlik va xiyobonlar o'rnida yozning jaziramasiyu qishning qahratonida "toblanib yotuvchi" yap-yalang asfalt-beton sathdan boshqa deyarli hech narsa bo'lmaganini hatto tasavvur eta olmasligi mumkin.

Istiqlol yillarida Mustaqillik maydoni poytaxtimizning ulkan me'moriy ansambliga aylandi. O'zbekiston

Respublikasining Mustaqilligi kuni deb e'lon qilingan sana – 1991 yil 1 sentabrdan e'tiboran, O'zbekiston Prezidenti Farmoniga muvofiq, Toshkentning markaziy maydoni – Mustaqillik maydoni deb atala boshlangani bunda muhim omil bo'ldi. Prezidentimiz rahnamoligida bu yerda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bosh maydonimizning nainki manzarasini, ayni chog'da mazmun-mohiyatini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Zalvorli o'zgarishlar jarayonida Mustaqillik monamenti, Xotira xiyoboni barpo etildi. Senat binosi, Ezgulik arkasi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Tasviriy san'at galereyasi, Biznes-markaz, shuningdek, zamonaviy favvoralar kabi buyuk bunyodkorlik namunalari yaratildi. El-yurt sha'n-shavkati, g'urur-iftixori, milliy davlatchiligimiz timsoli bo'lmish obidalardan yana biri – farzandini bag'riga bosib turgan munis o'zbek ayoli siymosi aks etgan yuksak me'moriy-badiiy majmua – Baxtiyor ona haykalidir.

Mustaqillik monamenti va Baxtiyor ona haykali Ezgulik arkasi, oq poyondozi shaklidagi keng yo'lak bilan birga yaxlit ansamblni tashkil qiladi. Mustaqillik va ezgulik tushunchalarini o'zida uyg'unlashtirgan bu yodgorlik, Yurtboshimiz taklifiga ko'ra, Mustaqillik va ezgulik monamenti deb ataldi.

Ha, asrlar mobaynida suronli jangu jadallarni, yuksalish va inqiroz davrlarini boshdan kechirgan, necha bor vayron bo'lib, qayta qad rostlagan, shu tariqa nomi kabi qadimiy joyi ham har gal o'zgarib borgan shahar aynan mustaqillik yillarida tinch qurilish va buyuk bunyodkorliklar maydoniga aylandi. Bunda, avvalo, shahar qiyofasiga sharqona tus berilishiga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan

birga, zamonaviy me'morlik yechimlarining eng ilg'or yutuqlaridan unumli foydalanildi.

Ana shu zalvorli o'zgarishlar jarayonida shaharning turli joylarida qulay yo'lo'tkazgichlar ishga tushirildi, halqa yo'llari va ko'priklar, bog'lar, noyob obidalar barpo etildi. Milliy bog' va boshqa o'nlab istirohat bog'lari, bozorlar, aeroport va vokzal binolari deyarli qayta qurildi. Viqorli, osmono'par imoratlar – mehmonxonalar, madaniyat saroylari, muzeylar, banklar, sport majmualari qad ko'tardi. Natijada so'nggi yillarda Toshkent tanib bo'lmas darajada yangi va zamonaviy qiyofa kasb etdi. Birgina Eski shahar hududida amalga oshirilgan ko'lamdor ishlarni olaylik. Bu yerlar bundan bor-yo'g'i 10-15 yil ilgari qay ahvolda bo'lganini hamshaharlarimiz yaxshi eslaydi. Ikki mashina ro'baro' kelib qolsa, bir-biriga yo'l berishga majbur bo'ladigan tor ko'chalar, tabiiy gaz va ichimlik suvdan mahrum, pastqam uylar shahar husnini buzib turar edi. Endi esa Eski shaharni obod etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar samaralari keng va ravon ko'chalarda, yangi ko'rkam turarjoylar, maktab va poliklinikalar, mahallalar guzarlarida o'z aksini topmoqda. Bo'zsuv kanali bo'yida o'tgan asrning 80-yillarida qad rostlagan Toshkent teleminorasi 375 metr balandlikka ega bo'lib, bu borada MDHda ikkinchi, mintaqamizda esa birinchi o'rinda turadi. Toshkent metropoliteni ham Markaziy Osiyoda yagonadir. Keyingi davrda poytaxt teleminorasi, metro stansiyalari tubdan ta'mirlandi, metroning yangi yo'nalish va stansiyalari bunyod etildi. Poytaxtimiz to'yiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida bunyodkorlik ko'lamlari butun shahar bo'ylab bundan-da keng quloqch yoymoqda. Alisher Navoiy

nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining yangi binosi, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining ikkinchi qismi, Bolalar ijodiyoti ko‘rgazmasi markazi, Toshkent Islom universitetining yangi o‘quv korpusini barpo etish, “Paxtakor” markaziy stadionini to‘liq qayta rekonstruksiya qilish birinchi galdagi vazifalardandir.


Taraqqiyotga yuz tutgan shahar

Toshkentdagi “Zenith electronics” qo‘shma korxonasi “LG” rusumidagi televizorlar hamda maishiy konditsionerlarni, “Roison Electronics Co. Ltd” kompaniyasi esa “Roison” televizorlari va “Samsung” konditsionerlarini, shuningdek, DVD-pleyerlarni keng savdoga chiqarayotir. Ushbu mahsulotlar zamonaviy dizayni, sifati, texnik imkoniyatlari, narxi, kafolat muddati kabi bir qator muhim jihatlar bo‘yicha xorijiy tovarlarga nisbatan ancha afzalliklarga ega. Shu bois ular hozirgi davrning talabchan va nozikta‘b iste‘molchilari didiga ma‘qul tushmoqda. Bu – poytaxtimizdagi necha minglab ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanayotgan raqobatbardosh tovarlar “daryosi”dan “bir tomchi”, xolos. Zotan, ayni paytda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 16 foizi, tashqi savdo aylanmasining salkam 38 foizi, servis va xizmatlarning 31 foizi Toshkent shahri ulushiga to‘g‘ri kelishi bejiz emas.

Sanoatimiz tayanch ustunlari hisoblangan Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, “O‘zkabel”, “Toshkent traktor zavodi”, “Sovplastital”, “Toshkent lak-bo‘yoq zavodi”, “Fayz”, “O‘zelektroapparat” kabi yirik

korxonalar o'zining ishlab chiqarish salohiyati va malakali kadrlari bilan nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham yaxshi ma'lum. Ayni vaqtda eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangidan-yangi korxonalarning paydo bo'layotgani e'tiborga molikdir. Toshkentda birgina 2007 yilda 28 zamonaviy korxona foydalanishga topshirildi. Shahardagi sanoat korxonalarining quvvati tobora oshib borayotir. 2000 yildan buyon poytaxt korxonalarida traktorlar ishlab chiqarish 3 baravarga, traktor tirkamalari va rangli televizorlar – 5 baravarga, konditsionerlar – 6,5 baravarga ko'paygani shundan dalolatdir. Qariyb 3 ming korxona – dunyoning yuzdan ortiq mamlakatidagi kompaniya va firmalar bilan samarali tashqi iqtisodiy aloqalar o'rnatganligi hisobiga – o'tgan yili 2,6 milliard dollarlik mahsulot eksport qilishga erishildi. Tarmoqdagi bunday ijobiy o'zgarishlar bevosita investitsiya jarayonlarining faollashuvi samarasidir. Keyingi yillarda Toshkent shahri sanoatiga 1,3 milliard dollar miqdorida investitsiyalar jalb etilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Xususiy tadbirkorlarga yaratilgan shart-sharoitlar tufayli shaharda kichik biznesning yalpi ichki hududiy mahsulotdagi ulushi 52 foizga yetdi. Eng muhimi, mehnatga layoqatli aholining 68 foizi aynan shu sohada band ekani poytaxtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik qanday keng ko'lam va jadal sur'atlarda rivojlanayotganidan dalolatdir. Toshkent shahridagi "Chorsu", "Oloy", "Parkent", "Chilonzor", "Mirobod" kabi bozorlar tubdan rekonstruksiya qilingani, yangilari qurilgani ham ana shunday xayrli ishlar sirasidandir. Poytaxtimizda ayni paytda zamonaviy, ko'rkam va qulay



yuzdan ortiq buyum bozori, dehqon bozori, shuningdek, qurilish materiallari savdosiga ixtisoslashgan bozorlar faoliyat ko'rsatmoqda.